



## ZAMONAVIY SHE'RIYATDA YOMG'IRNING IFODALANISHI

Sharipova Rahima Muxtorovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Navoiy Davlat pedagogika instituti

O'zbek adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812738>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021

Chop etildi: 20-Dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

timsol, ramz, obraz, motiv, lirik qahramon, shamol, bulut, yomg'ir.

### ANNOTATSIYA

*Zamonaviy she'riyat tabiat ramzlari, xususan yomg'ir orqali, mavzular qamrovini yanada kengaytirib borayotgan, turli timsollar, ramzlar vositasida kitobxonlar ruhiyati va shuuriga yo'l ochayotgan she'riyat. She'riyatda tabiat va u bilan bog'liq tushunchalarni taqdiq etish bugungi kun uchun dolzarbli.*

Haqiqiy badiiyat, anglangan va anglatilgan go'zallik kitobxonning ma'naviyatidagina emas, tafakkuriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga to'g'ri yo'nalish beradi. Adabiyot bag'rida dunyoga kelayotgan har bir she'r iste'dod mahsuli, ko'ngil mulki. Olamni shoirona idrok eta olmaydigan, uning boshqalarga noma'lum jihatlarini ko'ra olmaydigan kishi shoir bo'la olmaydi. Shoir har bir yaratgan she'r namunasida o'zini izlab, o'zini tekshirib, o'zini kashf qilmoqqa intilib yashaydi. She'riyatda yomg'ir ifodasini berish, u orqali tashilayotgan ma'no-mohiyatni kitobxonga yetkazish har bir shoirning o'z uslubi, mahorat darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Qaytgim keldi onam  
yoningga,

Yuragimda ismsiz dardlar.

Sovuq xonam, soat chiq-chiqi,

Tashqarida xazonrez bog'lar.

**Yomg'irning** jim xonish qilishi...

Barisi ham nechundir bu dam

Tushirmoqda seni yodimga... [1, 108]

(Abdulla Oripov "Onamga xat")

Shoir hamisha dard bilan yashaydi. Xalqimizning daho shoiri Abdulla Oripov insonning sog'inch, iztirob oldida ojizligini juda ma'yus tarzda ifodalagan. She'rda hissiyotlar izohlanmoqda. U yomg'irni go'yoki xonish qilayotgan bulbulga qiyos etadi.

**Yomg'ir** yog'ar,  
shig'alab yog'ar,



Tomchilar, tomchilar  
sochimga,

**Yomg'ir** yog'ar,  
shig'alab yog'ar,

Ham qayg'umga, ham  
quvonchimga...[2, 125]

(Rauf Parfi "Yomg'ir yog'ar")

Rauf Parfining uch to'rtlikdan iborat mo'jazgina she'ri shu taxlit boshlanadi va uning teng yarmi ya'ni olti misrasi "yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar" satrlari takroridan iboratdir. Yomg'ir, ayniqsa, shig'alab yog'ayotgan yomg'ir ostida goh mahzun, goh xushnud turgan shoir, sochlariga tomayotgan tomchilar, yog'ayotgan yomg'irning lirik qahramon qayg'usiga ham, quvonchiga ham baravar tomchilayotgani tasviri kitobxon ruhiy holatiga o'zgacha ta'sir o'tkazadi. Ular yomg'ir ostida turgan nozikta'b lirik qahramon holatini his qiladi. Shoir yomg'ir yog'ayotgani haqida xabar bermaydi, balki yomg'irni she'rxon ko'z oldida yog'diradi.

Inson hayotga mehmon,  
toshchalik emas yo'ldosh,

Ona ham yoshin yashab bu  
olamdan ko'z yumdi.

Misli qalbdan quydi **sel**  
ayoldan to'kdi ko'z yosh,

Yosh to'kdi o'g'il, ammo  
qo'yolmadi marmartosh. [3, 108]

(Gulchehra Jo'rayeva "Marmartosh")

Yomg'ir noyob hodisadir. Uning turlari bisyor. Tongda ko'zimizni quvnatib tushadigan shabnamdan tortib, insonlarni dahshatga soladigan do'lgacha yomg'ir

onalik qiladi. Yomg'irning tezlashgan holatda yog'ishiga sel deyiladi. Selning tezligi yomg'irdan bir necha barobar yuqori turadi. Shoir o'z misralarida ko'ngildan chiqayotgan dardli yig'ini selga qiyos etadi. G'oyo u o'z shiddati, tezligi bilan qalbni yuvayotganday.

Ona to'plab chiqsa – bardoshlaringiz,

Shuncha yillar to'kkan ko'z yoshlaringiz.

Yer-u osmon **sel-u yomg'ir, do'l** bo'lardi.

Bir vohani ko'mardi suv,

Bir vohani g'arq etguvchi ko'l bo'lardi.  
[4, 86]

(Sirojiddin

Sayyid)

Odatda shoirlar yomg'irni ko'z yoshiga o'xshatishadi. Chindan ham yomg'ir ko'z yoshlariga o'xshaydi. Sirojiddin Sayyid yomg'irni nafaqat ko'z yoshiga balki bardoshga qiyoslamoqda. Bu uning uslubidagi bir qirrasidir demak. Shoir tabiat hodisalarini uyushiq holda tasvirlab, she'rga o'zgacha mazmun baxsh etgan. Shuningdek, she'rda gradatsiya hodisasidan ham unumli foydalangan. Ya'ni yomg'ir – sel – do'l tarzida. Bu uchala tushuncha bir-biridan shiddati, tezkorligi, ko'rinishi bilan farq qilsa-da, she'rda insonning sabr-bardoshini ifoda etmoqda. Onaizorlarning sabr-bardoshi shunchalar mustahkamki, yomg'ir-u sellarga hatto do'llarga ham chidash bera oladi. Shoir shunday buyuk matonatga tahsinlar aytmoqda.

Ivishgan novdalar sindilar.

**Yomg'ir** ham yog'madi uzun kun,

Barglari jon uzib tindilar.



Samoning ko`ksiga qoqilsa,

**Shamolga** chiqsaydi otilib.

Mayliga **yomg`irdek** yiqilsa,

**Shamolga** chiqsaydi otilib.

Bag`riga olar-ku **bo`ronlar**,

Ismsiz hasratni haydarlar.

Bir imkon shartini aytarlar,

Bag`riga olarku **bo`ronlar**.

**Yomg`ir** ham tinmadi uzun kun.  
[2, 145]

(Rauf Parfi “Yomg`ir ham tinmadi uzun kun”)

She`rdagi tabiat hodisalari bir-birining inkorini berish bilan birgalikda she`rni o`zgacha jilolantirgan. Yomg`ir, shamol, bo`ron lirik qahramonning ruhiyatini ochishga xizmat qilmoqda. Bo`ron bu uzoq davom etadigan kuchli shamol. Bo`ronning dovul, po`rtana, qasirg`a singari nomlari ham mavjud. Lirik qahramon o`z hislarini bo`ronga topshirmoqchi. Rauf Parfining so`z ustasi ekanligining yana bir dalili shuki, u yomg`ir yog`ishini ya`ni yerga yomg`ir tomchilarining tomishini “yiqilmoq” so`zi bilan beradi. Bu orqali she`rxonda ajib bir kayfiyat uyg`otadi.

Og`ir tun, qurir tinka...

Bu **yomg`ir** tinar qachon?

Yerga botadi tovon,

Loy yopishar etikka.

**Yomg`ir qorga** aylanar,

Ko`zingda kular alam.

Ohista bosh aylanar,

Qayga qochib borar g`am?

Qanday go`zal bu olam? [2, 108]

(Rauf Parfi)

Tabiat hodisalari sirliligi bilan insonlarni hamisha lol qoldirib kelgan. Lekin ularning tinimsiz sodir bo`lishi odamlarni zeriktirib qo`yadi. Shoir ham she`rda tinimsiz yog`ayotgan yomg`irning ko`ngilni g`ashlantirganini ta`riflamoqda.

1. Zamonaviy she`riyatning qalbi sanalgan tabiat hodisalari sirliligi va jilokorligi bilan kitobxonlarni hamisha e`tiborida bo`lgan. Tabiat hodisalarini she`rda tasvirlash uchun shoirdan is`tedod, mahorat talab qilinadi.

She`riyatda tasvirlanayotgan tabiat tasviri yoxud hodisasi bu shoirning shuningdek, lirik qahramonning xarakterini, his-tuyg`ularini ifoda etadi. Ayniqsa, bu holatlar she`rxonning hissiyotlariga ham o`z ta`sirini o`tkazadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oripov.A. 4 jildlik. 1-jild. -Toshkent: Adabiyot va san`at, 2000.-431 b.
2. Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Тошкент: Muharrir, 2013. –375 б.
3. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърят. –Т.: 2006.
4. С.Саййид.Шеърлар, дostonлар, насрий оҳангларда/-“Sharq”.- Т.:2018.-480 б